



**ABDULLA ORIPOVNING “HAJ DAFTARI” ASARIDAGI
HADISLARNING BADIY TAHLILI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Ravshonbekova Gulmira

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at

fakulteti, o'zbek tili ta'lif yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripovalning “Haj daftari” asaridagi hadislar tahlil qilinib, ularning badiiy ifodalananishi hamda tarbiyaviy jihatlari o'r ganiladi. Sho'ir hadislarni g'oyaviy-estetik vosita sifatida qo'llab, o'quvchining ma'naviy kamolotini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Haj daftari, Abdulla Oripoval, hadis, badiiy tahlil, tarbiya, ma'naviyat, axloq.

Hadislar islam dini va tafakkurining muhim manbai sifatida she'riyatda ham muhim o'rin tutadi. Abdulla Oripoval o'zining “Haj daftari” asarida hadislarni chuqur badiiylik bilan ifodalaydi va ularni inson ma'naviyatini yuksaltirish vositasi sifatida qo'llaydi. Ushbu maqolada aynan shu jihatlar yoritiladi.

Oripoval asarida hadislar to‘g'ridan-to‘g'ri yoki ma'no jihatidan ifodalangan. Ular hayotiy tajriba, ruhiy iztirob va ichki poklanish jarayonlari bilan uyg'unlashgan. Masalan: “Innamal a'malu binniyyaat” (Amallar niyatga bog'liqdir) hadisi asarning bosh g'oyasi sifatida aks etadi. Sho'ir Haj safariga faqat riyozat va tavba niyatida borgani, bu amallarni chin dildan ado etganini ifodalaydi. Asarning kirish qismida: “Makkai mukarramaga borganimning dastlabki kunida Ka'batullohda— Olloh uyi yonida tunni bedor o'tkazib, tilovat bilan bir qatorda baytlar yoza boshladim. Men bu holatga avvaldan bir muncha tayyor bo'lganim sabablimi



satrlarim o‘z-o‘zidan quyilib kelaverdilar. She’riy hadislarimning barchasi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom suxanlari bilan bevosita bog‘liq edi. Madina shahriga borib, payg‘ambarimiz maqbarasini ziyorat qilganimda ham menda xuddi yuqoridagidek holat yana yuz berdi. “Payg‘ambar” she’rini yoza boshladim. Hajning bir necha farz va sunnatlari bor. Haj odatdagি ziyorat, ya’ni umradan farq qiladi. Ularning tafsilotlarini hozir sanab o‘tirmayman. Aytish kerakki, ushbu shartlarni to‘lig‘icha ado etish nihoyatda mashaqqatli jarayondir. Ayniqsa, bir necha million ziyoratchilar jazirama oftob ostida jam bo‘lgan sharoitda hatto jon saqlash ham amrimahol bo‘lib qoladi. Mening bu gaplarim zinhor-bazinhor hasrag yoxud nolish emas, Hajga har kim o‘z ixtiyori bilan borgusidir. Noligan odam o‘zidan ko‘rsin. Bundan tashqari, Haq yo‘li, uning visoliga yetishmoq osongina kechadigan sayohat emas. Mumtoz shoirlarimiz “Riyozat chekmaguncha yor vasliga yetib bo‘lmas” deganlarida xuddi ana shu mashaqqatlarni ko‘zda tutganlar”¹, deya yozadilar. Asar boshlanishida ijodkor to‘g‘ridan-to‘g‘ri hadislar bilan boshlamaydi, “Ka’batulloh”, “Payg‘ambar”, “Tilanchi bola”, “Alloh dargohi”, “Hasrat”, “Ona”, “Arofat”, “Hojilar” kabi o‘nga yaqin she’rlarni kiritadi, so‘ngra “Hikmat sadolar” sarlavhasi ostida ellik hadis mazmuni singdirilgan she’rlarni yozadi. Birinchi she’r “Ibodat” deb nomlanib, she’rning mazmuni kimgadir bu dunyodan roziman deb ham rozi emasman deb ham aytmaslik keragligini, chunki albatta inson bolasi “nega?” degan savol beradi. Shuning uchun, “Olis kechalarda yolg‘iz qolgan on, Dilingni och faqat parvardigorga” deya yozadi shoir.

Abdulla Oripov “Inson” nomli she’rida esa odamzotga shunday nasihat beradi:

Ko‘zingning o‘ngida o‘sgandek ekin

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi



Robbim ham ogohdir har zum har ishdan.

Ro‘za-yu parhizda muddat bor, lekin

Hamisha hazar qil harom-harishdan.

Ushbu misralar orqali insonlarni shoir halol bo‘lishga, harom-harishlardan uzoqda turishga chorlamoqda. “Shoh va gado” she’rida esa insonlar bir-birini kamsitmasligi, mehr-oqibatda bo‘lishi kerakligi, chunki bu dunyoda hamma uchun yagona makon yaratilganligi va barcha bu olamga mehmon ekanligi ta’kidlanadi. Shoir hadislar orqali sabr, tavba, halollik, ixlos kabi fazilatlarni targ‘ib etadi. Bu ruhiyat yosh avlodni mehr-oqibat, bag‘rikenglik, insoniylikka da’vat etadi. Misol uchun, “Tavba” she’rida:

Yo‘q, hali olamda mavjuddir shafqat,

Yo‘q, hali tebranur mehr beshigi.

Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,

Senga ochiq faqat tavba eshigi.²

Bu bandda ijodkor tavba eshiklari to qiyomatga qadar ochiq ekanligini, Alloh shafqatli va kechirimli Zotligini, agar inson chin yurakdan tavba qilsa, gunohlari kechirilishini bot-bot ta’kidlaydi. Ijodkorning “Ona” nomli she’rida esa Muhammad (s.a.v) ga bir inson kimga ko‘proq yaxshilik qilishi kerakligi haqida va uni ota-onasigami yoki bolasiga qilishi lozimligi haqida so‘raydi. Shunda Rasuli akram o‘sha insonga eng avvalo dunyoda imkon topa olsa agar onasiga yaxshilik qilishini ta’kidlaydi va she’rni shu misralar bilan yakunlaydi:

Bu hikmat sharhini o‘yladim uzoq

2. Oripov A. Ishq sahrosi. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. - 41 b.



Rostdan ona erur qiblai olam.

Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq

Onadan tug‘ilgan payg‘ambarlar ham.

Ikkinchi misradagi “qiblai olam” iborasi — majoziy ifoda, ya’ni “butun dunyo sajda qilinadigan, e’tibor markazidagi zot” degani. Shoir onani aynan shunday maqomga ko‘taradi: ona — hayot, mehr, sabr, poklik timsoli. To‘rtinchi satrda esa ona mavqeining beqiyos yuksakligi ta’kidlanadi. Hatto payg‘ambarlar kabi ilohiy zotlar ham onadan tug‘iladi — bu onaning hayotdagi o‘rnini ta’riflab bo‘lmasligini anglatadi. Ona nafaqat hayot manbai, balki ma’naviy buyukliklarning ham boshlanish nuqtasidir. “Haj daftari” to‘plami “Hadis” nomli she’r bilan yakunlanadi:

Ibodat bor edi, u etgay davom,

Qirq bilan yopmasmiz bu uyning tomin.

Bizni tinglaganga hamisha salom,

Yana ko‘rishguncha sog‘ bo‘ling! Omin!³

Abdulla Oripov “Haj daftari” asarida hadislarni g‘oyaviy-badiiy vosita sifatida mohirlik bilan qo‘llagan. Asar nafaqat diniy safar xotiralari, balki har bir musulmon, har bir inson uchun axloqiy va ruhiy saboqlarga boy kitobdir. Undagi tarbiyaviy motivlar — yosh avlodni komillikka, vijdonlilikka, xalqparvarlikka yetaklaydi. Asar har bir yurtdosh qalbida yuksak ma’naviy uyg‘onish uyg‘otishi shubhasizdir. Ular orqali inson kamoloti, axloqiy poklik, sabr-toqat, xalqparvarlik va mehr-muruvvat g‘oyalari targ‘ib etiladi. Ushbu asar yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ruhiy-ma’naviy manbadir.

³ Орипов, Абдулла. Ҳаж дафтари. Тошкент: Faafur Fulom nomidagi nashriёт, 1992. B-28.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Орипов, Абдулла. Ҳаж дафтари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1992.
2. Oripov A. Ishq sahrosi. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. - 41 b.
3. Qur'oni Karim va Hadislar. Tarjimalar va sharhlar. Toshkent: Hilol-nashr, 2015.
4. Rasulov, Z. O'zbek she'riyatida diniy motivlar. Samarqand, 2021.
5. Karimov, A. Abdulla Oripov poetikasi. Toshkent: Fan, 2002.
6. Saidov, M. Hadis va adabiyot. Toshkent, 2018.
7. Ilova: **www.ziyouz.com** kutubxonasi